



XORAZMDA JOYLASHGAN TURISTIK OBYEKTЛАRNING TARIXIY JIHLTLARI

Raximova Nigora Umid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-4161-0438

nigora.rakhimova7228@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Xorazm turizm infratuzilmasini rivojlantirish, hududning sayyohlik yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish, sayyohlik imkoniyatini namoyish qilish ishlarini amalga oshirish, sayyohlar uchun qo'shimcha obyektlar infratuzilmasini yaxshilash, turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Avesto, Turon o'lkasi, Arianam Vayja, Prourata (Parfiya), Mouru (Marv), Gava (Suqdiyona), Xvayrezm (Xorazm), Baqtriya, Ichan-Qal'a, muzey qo'riqxonasi, Shahrison, Qo'yqirilgan qal'a, Xiva raboti, Buyuk Ipak yo'li, Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza, Nurullaboy, YUNESCO.

ИСТОРИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТУРИСТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ, РАСПОЛОЖЕННЫХ В ХОРЕЗМЕ

Рахимова Нигора Умид кизи

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В статье рассматривается развитие туристической инфраструктуры Хорезма, совершенствование туристических маршрутов и услуг региона, демонстрация туристических возможностей, совершенствование инфраструктуры дополнительных объектов для туристов, подготовка, переподготовка и повышение квалификации специалистов туризма.

Ключевые слова: Авеста, Туранская земля, Ариана Вайджа, Проурата (Парфия), Муру (Марв), Гава (Сугдияна), Хорезм (Хорезм), Бактрия, Ичан-Кала, музей-заповедник, Шахристан, Куйкирилган Кала, Хивинский работ, Великая шелковая дорога, Бахча дарваза, Палван дарваза, Таш дарваза, Ата дарваза, Нуруллабай, ЮНЕСКО.

HISTORICAL ASPECTS OF TOURIST SITES LOCATED IN KHOREZM

Rakhimova Nigora Umid kizi

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article discusses the development of the tourism infrastructure of Khorezm, improvement of tourist routes and services in the region, demonstration of tourism opportunities, improvement of the infrastructure of additional facilities for tourists, training, retraining and advanced training of tourism specialists.

Keywords: Avesta, Turanian land, Arianam Vaidzha, Prourata (Parthia), Muru (Marv), Gava (Sugdiyana), Kharezsm (Kharezsm), Bactria, Ichan-Kala, museum-reserve, Shakhristan, Kuikirilgan Kala, Khiva works, Great silk road, Bakhcha darvaza, Palvan darvaza, Tash darvaza, Ata darvaza, Nurullabay, UNESCO.

Kirish.

Xorazm - Markaziy Osiyoning Turon pasttekisligida, Amudaryo deltasida joylashgan qadimiy tarixiy o'lkadir. "Xorazm" so'zi dastlab "Avesto"da uchraydi, "Avesto" Sharq yozma adabiyotimizni eng qadimgi manbasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. "Avesto"da qadimiy Turon o'lkasi va Eronning o'ziga xos tarixiy geografiyasi bayon etiladi. "Avesto" Sharqiy Eron va Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi qadimiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi, diniy qarashlari hamda jamiyatda ro'y berayotgan tabaqalanish haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. O'sha davrlarda jamiyat turli tabaqalarga bo'linib, boylar va kambag'allar sinflari paydo bo'la boshlagan. "Avesto" ruhoniylar, jang aravalarida yuruvchi harbiylar, dehqon-chorvadorlar, hunarmandlar, qullar mavjudligi haqida xabar beradi. Jamiyatning sinflarga bo'linishi natijasida dastlabki davlatchilik ham vujudga keladi. "Avesto"da bayon qilingan voqealar asosan, "Arianam Vayja" mamlakatida, ya'ni olimlar tomonidan "Katta Xorazm" deb atalgan davlatda ro'y beradi. Bu davlat Prourata (Parfiya), Mouru (Marv), Gava (Suqdiyona), Xvayrezm (Xorazm)ni o'z ichiga olgan. Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga kelib, Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'ldi. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya va miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo'lgan yerlarda (Shimoliy g'arbiy O'zbekiston, Shimoliy g'arbiy Turkmaniston) hududlarida Xorazm nomi bilan ataluvchi davlatlar vujudga kelgan.

Adabiyotlar sharhi.

Anatoliy Yershov (1988) Mo'jazgina Xiva shahrini ko'pchilik yashi biladi. Bu orasta shaharcha ming-minglab sayohat ishqibozlarini o'z bag'riga ohanraboday tortib turadi. Kishilar uni ko'rish uchun Amerika va Avstraliyadan, Yevropa va Osiyodan, jahonning eng uzoq burchaklaridan kelishadi. Sharq mo'jizasini o'z ko'zlari bilan bir bor tomosha qilish uchun qadam ranjida qilishadi, deya fikr bildirgan.

Muhammad Yusuf Bayoniy Shajarayi Xorazmshohiy (1918) asarida Xorazm Imperiyasi (1097-1231) Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari, Xorazmning yirik sug'orish inshootlari, o'lkada yashagan aholi, uning turmush tarzi, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi haqida ma'lumotlar bergan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlanganligi, qadimgi xorazmliklar ilm-fan sohasida o'z davri uchun ilg'or bo'lgan yutuqlarga erishganligini va hayotga tatbiq qila olganliklarini asarda uchratish mumkin.

Turkiya universiteti siyosatshunoslik va davlat boshqaruvi fakulteti dotsenti, tarix fanlari doktori Yildirim Beyazit Ayshe Cholpan Yaldiz (2020) maxsus ochiq osmon ostidagi muzey — Xiva shahriga bag'ishlangan maqolasida Xiva 2020 yilda turkiy dunyoning madaniy poytaxti deb e'lon qilinganligini haqidagi fikrni aytgan.

Qudrat Masharipov (2021)ning fikricha — Xorazm viloyatini vaqtning ehtiyotkor posboni deyish mumkin. Mintaqa o'z hayoti davomida "yig'ib olgan" ko'plab qadimiy xazinalar bugungi kungacha saqlanib qolgan va ko'rish uchun mavjud. Gap, birinchi navbatda, qadimiy manzilgohlar, saroylar, masjidlar, minoralar haqida ketmoqda. Qadimiy obidalarning ko'pligi uchun Xorazm viloyati "Ming qal'alar o'lkasi" deb ataladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga e'tibor yildan yilga oshib bormoqda. 2017 yilda bu sohani rivojlantirish bo'yicha alohida mintaqa va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda, alohida turizmni rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydagi «2017–2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'risida» gi PQ-2953-sonli qarori bunda yaqqol misol bo'ladi (Qaror, 2017). Bunda mintaqa turizm salohiyatini oshirish va uni xalqaro miqyosda raqobatbardoshligi oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorazm viloyatida turizm sohasi respublikada eng rivojlangan viloyatlardan biridir. Ushbu viloyatda turizmni rivojlanishi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, sohani yanada rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat va salohiyatlarga ega. Viloyatda 255 madaniy meros obyektlari davlat ro'yxatiga olingan bo'lib, shundan 18 tasi arxeologiya, 133 tasi arxitektura, 66 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 32 tasi muqaddas qadamjolaridir. Ulardan 53 ta madaniy meros obyektlari Xiva «Ichan-Qal'a» Davlat muzey qo'riqxonasi hududida joylashgan. Qolgan obyektlar viloyatning turli tumanlarida joylashgan. Bu esa viloyatda turizmni rivojlantirish potentsiali, uning imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda viloyatda joylashgan ayrim turistik obyektlar ta'mirtalab ahvolga kelib qolgan. Ba'zi obyektlar turistik yo'nalishlar dasturiga kiritilmagan. Ta'mirtalab ahvoldagi obyektlarni ta'mirdan chiqarib, turistik yo'nalishlar dasturiga kiritilsa viloyatga turistlar oqimni ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi. Bu bilan qo'shimcha valyuta tushumiga erishiladi, mahalliy aholi vakillarining ish bilan ta'minlanish imkoniyati yuzaga keladi. Hozirgi kunda viloyatni tarixiy-madaniy merosi asosan BMT ning YUNESCO moddiy meroslarni asrash ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, Xiva shahrining asosiy obyektlari ulardan joy olgan.

2012 yilga nisbatan viloyatimizda sayyohlik tashkilotlari soni 36 tadan 72 taga, shundan mehmonxonalar soni 26 tadan 52 taga, turoperator va turagentlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni 10 tadan 20 taga etdi. Xususan, 2016 yilning o'zida 10 ta mehmonxona va 3 ta turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sayyohlik tashkilotlari ish boshlashdi. Bugungi kunda chet el investitsiyasini jalb qilgan holda tashkil etilgan 5 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatmoqda. Mehmonxonalardagi o'rinlar soni 1477 tadan 2300 taga etdi. Viloyatda turizm sohasidagi o'zgarishlar hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishi natijasida bugungi

kunda jami sayyohlik tashkilotlarida 450 nafardan ortiq xodimlar mehnat qilib kelmoqda. Xorazm viloyatida turizm sohasi respublikada eng rivojlangan viloyatlardan biridir. Ushbu viloyatda turizmni rivojlanishi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, sohani yanada rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat va salohiyatlarga ega. Mintaqada turizm industriyasining raqobatbardoshligini bevosita baholash uchun biz Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar tashrifi statistikasiga bevosita to'xtalib o'tamiz. Bu 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami xorijiy sayyohlar soni 46 600 kishini tashkil qiladi. Bu ko'rsatgich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 foizda ortganligi kuzatiladi. Viloyatda turizmni rivojlantirish dasturiga asosan 2013–2015 yillarda jami 214,3 mlrd. so'mlik 200 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bugungi kungacha 108 ta loyiha to'liq bajarilib, 49,3 mln. dollarga teng investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi, 36,5 mln. dollarlik 46 ta loyihada ishlar davom etmoqda. «Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, hududning sayyohlik yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish, sayyohlik imkoniyatini namoyish qilish ishlarini amalga oshirish, sayyohlar uchun qo'shimcha obyektlar infratuzilmasini yaxshilash, turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish» bo'yicha dastur doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Shu jumladan, MDH mamlakatlaridan 2015 yil davomida 5767 nafar sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatgich 6598 nafar kishini tashkil qilib, 15 foizga oshgan. Birgina, 2015 yilning o'zida dunyoning 80 dan ortiq davlatidan 40,6 mingga yaqin xorijiy sayyohlar viloyatimizga tashrif buyurishgan bo'lishsa, 2016 yil yakuni bilan, bu ko'rsatkich 46,6 mingdan ortiqni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 % ga oshgan. 2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turistik salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan. Unda chora-tadbirlar quyidagi guruhlariga bo'lingan holda amalga oshiriladi: Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm infratuzilmasini rivojlantirish; Turizm yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish; Hududning turizm salohiyatini targ'ib qilish; Turistlar uchun yondash infratuzilma obyektlari holatini yaxshilash; Turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Xorazm viloyatida turizm xizmatlari va ushbu sohaning infratuzilmalari O'zbekistonning boshqa tarixiy joylariga nisbatan sust darajada rivojlanganligi ta'kidlab o'tiladi. Aslida esa, bu holat viloyatda turizm sohasi bo'yicha axborotlashuv past darajada ekanligi natijasidir. Tahlillar xorijlik turistlar ba'zan Xorazmga tashrif buyurishni rejalashtirmasliklariga bu yerdagi mavjud afzalliklar haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega emasliklari asosiy sabab sifatida ko'rsatilgan. Ayni paytda Xorazmga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar olingan taassurotlarni Samarqand va Buxoro shaharlaridagidan aslo kam emasligini ta'kidlashadi. Bundan tashqari, xalqaro turizm axborot vositalarida turli xalqlar ovqatlarini tayyorlash faqat Toshkent shahrida yaxshi rivojlanganligi, boshqa joylarda, xususan Xorazm viloyatida chet ellik sayyohlar uchun ovqatlanish uchun joylar nisbatan chegaralanganligi aytib o'tilgan. Xorazm viloyatiga turizm industriyasini jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uchun bu sohada xizmatlar sifatini oshirish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Bunda tashrif buyurgan har bir sayyohning xohish-istagini hisobga olish va xizmatlar sifatini yaxshilash uchun bu boradagi xalqaro standartlarni o'rgatish, hamda ularni soha vakillariga yetkazish darkor. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro andoza bo'yicha sifatga qo'yiladigan yangi talablar bilan turizm sohasi va boshqa tegishli soha vakillarini muntazam tanishtirib borish lozim. Xizmatlar sifatini oshirish uchun mamlakatimizda professional malaka sertifikatlash tizimini joriy qilish, hamda turizm, ovqatlanish va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarida «Iste'molchiga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish» konsepsiyasi keng targ'ib qilinadi. Mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari uchun xalqaro standartlar asosida milliy talablarni o'rnatish va turizm sohasida faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari yordamida xizmat ko'rsatish sifatini uzluksiz monitoring qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Ichan qal'a — O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik. Xivaning ichki qal'a (Shahriston) qismi. Ichan qal'a shaharning Dishan qal'a (tashqi qal'a) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti (Dishan qal'a) dan baland Qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rinadi. Ichan qal'aga 4 darvoza (Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza) dan kiriladi. Devor aylanasining uzunligi qariyb 2200 metrgacha, balandligi 7–8 metrga, poydevorining qalinligi esa 5–6 metrga teng. Ichan qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 metr, eni 400 metr, ya'ni 26 gektar maydonni egallaydi. Xorazm xalq me'morligining ajoyib obidalari: madrasa, masjid, saroy va minoralar, asosan, Ichan qal'ada. Ichan qal'a ansambli me'moriy yodgorlik sifatida muhofazaga olinib, muzeyga aylantirilgan (1961). 1990 yildan Ichan qal'a Butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan.

2012 yilga nisbatan viloyatimizda sayyohlik tashkilotlari soni 36 tadan 72 taga, shundan mehmonxonalar soni 26 tadan 52 taga, turoperator va turagentlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni 10 tadan 20 taga etdi. Xususan, 2016 yilning o'zida 10 ta mehmonxona va 3 ta turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sayyohlik tashkilotlari ish boshlashdi. Bugungi kunda chet el investitsiyasini jalb qilgan holda tashkil etilgan 5 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatmoqda. Mehmonxonalaridagi o'rinlar soni 1477 tadan 2300 taga etdi. Viloyatda turizm sohasidagi o'zgarishlar hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishi natijasida bugungi kunda jami sayyohlik tashkilotlarida 450 nafardan ortiq xodimlar mehnat qilib kelmoqda. Xorazm viloyatida turizm sohasi respublikada eng rivojlangan viloyatlardan biridir. Ushbu viloyatda turizmni rivojlanishi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, sohani yanada rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat va salohiyatlarga ega. Mintaqada turizm industriyasining raqobatbardoshligini bevosita baholash uchun biz Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan sayyohlar tashrifi statistikasiga bevosita to'xtalib o'tamiz. Bu 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami xorijiy sayyohlar soni 46 600 kishini tashkil qiladi. Bu ko'rsatgich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 foizda ortganligi kuzatiladi. Viloyatda turizmni rivojlantirish dasturiga asosan 2013–2015 yillarda jami 214,3 mlrd. so'mlik 200 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan.

Bugungi kungacha 108 ta loyiha to'liq bajarilib, 49,3 mln. dollarga teng investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi, 36,5 mln. dollarlik 46 ta loyihada ishlar davom etmoqda. «Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, hududning sayyohlik yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish, sayyohlik imkoniyatini namoyish qilish ishlarini amalga oshirish, sayyohlar uchun qo'shimcha obyektlar infratuzilmasini yaxshilash, turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish» bo'yicha dastur doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ichan qal'a — O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik.

Xivaning ichki qal'a (Shahriston) qismi. Ichan qal'a shaharning Dishan qal'a (tashqi qal'a) qismidan kungurador devor bilan ajratilgan. U Xiva raboti (Dishan qal'a)dan baland Qo'rg'ontepaga o'xshab ko'rinadi. Ichan qal'aga 4 darvoza (Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza, Ota darvoza)dan kiriladi. Devor aylanasining uzunligi qariyb 2200 metrgacha, balandligi 7–8 metrga, poydevorining qalinligi esa 5–6 metrga teng. Ichan qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 metr, eni 400 metr, ya'ni 26 gektar maydonni egallaydi. Xorazm xalq me'morligining ajoyib obidalari: madrasa, masjid, saroy va minoralar, asosan, Ichan qal'ada. Ichan qal'a ansambli me'moriy yodgorlik sifatida muhofazaga olinib, muzeyga aylantirilgan (1961). 1990 yildan Ichan qal'a Butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan.

Xiva shahrida 64 ta madrasa mavjud bo'lib, shular ichida eng yirigi va chiroylisi Xiva xoni Muhammad Aminxon tomonidan qurilgan madrasa hisoblanadi. Madrasa Ichan qal'aning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shaharning bosh darvozasi Ota darvozadan kirib kelganda, o'ng tomonda joylashgan. Bu me'morchilik obidasi o'z davriga xos uslubda eng katta va hashamatli qilib qurilgan. Madrasa pishiq g'ishtdan qurilib, uning devorlarining qalinligi 1,5 metrga etadi. Madrasa 130 hujradan iborat.

Derazalarda ganchdan ishlangan panjaralar qurilgan. Muhammad Aminxon minorasi: Xivada qurilgan mashhur minoralardan biri nihoyasiga yetkazilmagan Muhammad Aminxon minorasidir. Minora hozirgi paytda kesik konus shaklida bo'lib hozirni o'zida ham haybatli ko'rinishga ega. Dinamik qisqarishiga qarab xulosa qilinadigan bo'lsa, bitganidan so'ng uning balandligi 100 metrga yaqin bo'lib O'rta Osiyoda eng katta va baland minora bo'lishi mumkin edi. Minora qancha vaqt o'tgan bo'lsa ham xuddi yangi qurilganday saqlanib turibdi. Minora 1853 yilda Muhammad Aminxon tomonidan qurila boshlangan va 1855 yil Shimoliy Eronga yurish paytida xonning o'ldirilishi va Abdullaxonning taxtga o'tirishi bilan qurilish ishlari to'xtab qolgan.

Pahlavon Mahmud maqbarasi XIV asrda kichik go'rxona shaklida qurilgan bo'lib, unda o'z davrining katta "Piri" – Pahlavon Mahmud jasad ko'milgan. Pahlavon Mahmud 1247 yilda Xiva shahrida po'stindo'z oilasida tug'ilgan. Yoshlik yillarda ota kasbi po'stindo'zlik bilan shug'ullangan, so'ngra xat-savod chiqarib, buyuk shoir, faylasuf darajasiga erishgan. U juda ham zabardast pahlavon bo'lib 79 yillik hayotida biron marta kuragi erga tegmagan. Pahlavon Mahmud maqbarasi vaqt o'tishi bilan ko'pgina hukmdorlar tomonidan aziz sanalib obod qilingan. Tarixiy manbalarda maqbaraga Amir Temur tomonidan eshik o'rnatilgani yoziladi. Maqbara 3 ta qismdan iborat: qabrxona, xonaqo va yo'lak. Maqbaraning g'arbiy qismida joylashgan xonaga Pahlavon Mahmud dafn qilingan. Hozirgi vaqtda binoda O'zbekiston Musulmonlarning diniy idorasi, "Pahlavon Mahmud jamg'armasi" faoliyat ko'rsatmoqda. Inshootning ayrim joylari ta'mirtalab bo'lganligi uchun 2007 yilda, ayvon ustunlari, yo'laklar, quduq atrofi va uning tepasidagi chiroyli oshyonli yog'och gumbaz, peshtoqning ba'zi tushib ketgan sirli koshinlari qayta ta'mirlandi.

Xivadagi Nurullaboy saroyi eng hashamatli, eng jozibali, eng ko'rkam va maftunkorligi bilan boshqa saroylardan ajralib turadi. Muhammad Rahimxon II (1864-1910) xivalik savdogar boy Nurullaboydan bog'ini sotishini so'raydi. Nurullaboy xonga, u avvaldan xalq o'rtasida bo'lib kelgan Nurullaboy bog'i nomini o'zgartirmasa sotishini aytadi. Xon rozilik bildiradi va bog'ni sotib oladi. Shunday qilib Nurullaboy nomi saqlanib qoladi. Muhammad Rahimxon II Nurullaboy bog'i ichida o'g'li Isfandiyorxon uchun katta bir saroy qurdiradi. Bu ichki saroy

1896-1904 yillarda qurilgan bo'lib, baland devor bilan o'rab olingan. Saroydagi Isfandiyor to'ra uchun mo'ljallangan xonalarga Rossiyadan keltirilgan chinni pechkalar o'rnatilgan. Shiftlardagi Yevropa usulida yasalgan gullar va farishtalar rasmini rus rassomlari yasashgan. Binoda keyingi davrlarda Maorif uyi va muzey binosi sifatida foydalanilgan, hozirgi kunlarimizda saroy qayta ta'mirlanib, asl holiga keltirilgan.

Xulosa va takliflar.

Xiva shahrini ochiq osmon ostidagi muzey desak mubolag'a bo'lmaydi. Xorazm xalq me'morligining ajoyib obidalarini: madrasa, masjid, saroy va minoralar, asosan, Ichan qal'ada. Ichan qal'a ansambli me'moriy yodgorlik sifatida muhofazaga olinib, muzeyga aylantirilgan (1961). 1990 yildan Ichan qal'a Butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki Xiva nafaqat o'zbek xalqining, balki butun dunyo xalqlarini boyligi sanaladi. Bugungi kunda prezidentimiz turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27.07.2023 yildagi PQ-238-sonli, "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 26.04.2023 yildagi PQ-135-sonli qarorlari soha rivoji uchun xizmat qilmoqda. Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Maqsadimiz yurtimizni jahon sayyohlik bozoridagi o'rnini oldinga ko'tarib, chet ellik sayyohlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatlarini yaxshilash, sayyohlik obidalarini qayta ta'mirlab ko'rkam holga keltirish. Bu borada sezilarli o'sish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog'liq.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/ Reference:

Anatoliy Yershov. *Xiva-qo'riqxonalar shahar* (1988) "Sharq yulduzi" jurnali, 1988 yil, 7-son.

Masharipov Quadrat Yuldashevich. (2019) *Jaloliddin Manguberdi-buyuk vatanparvar sarkarda*, -400-bet.

Muhammad Yusuf Bayoniy. (1994) "Shajarayi Xorazmshohiy". *Ga'fur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti*. Toshkent, -104 bet bet.

Qaror (2017) «2017–2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'rida» gi PQ-2953-sonli Qarori.

Qaror (2023) "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli Qarori.

Qaror (2023) "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli Qarori.

Йылдырым Беязыт Айше Чолпан Ялдыз. (2020) *Xiva обладает чрезвычайной значимостью для всего тюркского мира*, 16 июнь.